

Oriental Journal of Education



ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING SOCIAL SOLIDARITY IN THE PROCESS OF DIGITAL TRANSFORMATION

Sevara Oribjonova*1st-year Master's student**Department of Teaching Methodology of Social and Humanitarian Sciences**Faculty of Social Sciences**National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek**Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Digital transformation, social cohesion, digital divide, innovative society, information space, digital literacy, open government, communication.

Received: 04.02.26**Accepted:** 05.02.26**Published:** 06.02.26

Abstract: The article focuses on analyzing the impact of the digital transformation process on social cohesion. The study identifies factors that either strengthen or weaken cohesion in society during the development of digital technologies. Digital transformation processes and their mechanisms of influence on social cohesion were examined. During the research, content analysis, statistical approaches, and sociological observation methods were applied. The main results of the study: factors positively affecting cohesion in the context of a digital economy (equal access to information, open governance, digital literacy) as well as factors negatively affecting it (digital divide, misinformation flow, online social fragmentation) were systematically identified.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA IJTIMOY BIRDAMLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

Sevara Oribjonova*1-kurs magistranti**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti**Ijtimoiy fanlar fakulteti Ijtimoiy gumanitar fanlarning o'qitilish**metodikasi (ma'naviyat asoslari) yo'nalishi**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Raqamli transformatsiya, ijtimoiy birdamlik, raqamli tafovut, innovation jamiyat, axborot makoni, raqamli savodxonlik, ochiq hukumat, kommunikatsiya.

Annotatsiya: Maqolada raqamli transformatsiya jarayonining ijtimoiy birdamlikka ko'rsatadigan tasirini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot raqamli texnologiyalarning

rivojlanish jarayonida jamiyatdagi birdamlikni mustahkamlovchi yoki susaytiruvchi omillarni aniqlash. Raqamli transformatsiya jarayonlari; ushbu jarayonlarning ijtimoiy birdamlikka ta'sir mexanizmlari o'rganildi. Tadqiqotni o'rganish jarayonida kontent tahlil, statistik yondashuv va sotsiologik kuzatuv usullari qo'llaniladi. Tadqiqotning asosiy natijasi: raqamli iqtisodiyot sharoitida birdamlikka musbat ta'sir ko'rsatadigan omillar (axborotga teng kirish, ochiq boshqaruv, raqamli savodxonlik) hamda salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar (raqamli tafovut, noto'g'ri ma'lumotlar oqimi, onlayn ijtimoiy bo'linish) tizimli ravishda aniqlangan.

АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА СОЦИАЛЬНУЮ СОЛИДАРНОСТЬ В ПРОЦЕССЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Севара Орибжонова

Магистрантка 1 курса

Направление Методика преподавания социально-гуманитарных наук

факультет социальных наук

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Цифровая трансформация, социальная сплоченность, цифровой разрыв, инновационное общество, информационное пространство, цифровая грамотность, открытое правительство, коммуникация.

Аннотация: Статья посвящена анализу влияния процесса цифровой трансформации на социальную сплоченность. В исследовании выявлены факторы, которые укрепляют или ослабляют сплоченность общества в процессе развития цифровых технологий. Рассмотрены процессы цифровой трансформации и их механизмы воздействия на социальную сплоченность. В ходе исследования применялись методы контент-анализа, статистические подходы и социологическое наблюдение. Основные результаты исследования: систематически определены факторы, положительно влияющие на сплоченность в условиях цифровой экономики (равный доступ к информации, открытое управление, цифровая грамотность), а также факторы, оказывающие негативное влияние (цифровой разрыв, поток дезинформации, онлайн-разделение общества).

Kirish. XXI asrda raqamli transformatsiya jarayoni jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib kelmoqda. Raqamli texnologiyalar boshqaruv va iqtisodiy tizim, kommunikatsiya, ta'lim jarayonlarini o'zgartirayotgan bir vaqtda, ularning ijtimoiy birdamlikka ta'siri ham bugungi kunda

muhim masalaga aylanib bormoqda. Globallashuv, internet tarmog'ining kengayishi va sun'iy intellekt vositalarining ommalashuvi raqamli jamiyatning ijobiy va salbiy tomonlarini yanada chuquroq tahlil qilishni talab etmoqda. Bugungi kunga kelib Yevropa va Sharq mamlakatlari raqamli jamiyat bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, raqamli transformatsiya jarayonining ijtimoiy birdamlikka bevosita ta'siri ko'proq yangi yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Markaziy Osiyo va xususan O'zbekiston sharoitida bu mavzu bo'yicha izlanishlar juda cheklangan. Ushbu tadqiqotning ilmiy ahamiyati esa raqamli transformatsiya jarayonlarida ijtimoiy birdamlikning o'zgarish mexanizmlarini ochib beradi, raqamli tafovutning jamiyat qatlamlari o'rtasidagi munosabatlariga ta'sirini baholaydi hamda milliy raqamli siyosat uchun takliflar beradi.

Yevropa olimlari J. Erkinson, D. Tapscott va M. Kastels raqamli jamiyatning kommunikatsion tuzilmalariga qanday ta'sir qilayotganini o'rgangan. Yaponiya va Janubiy Koreya olimlari raqamli iqtisodiyot modelning ijtimoiy uyg'unlikka ta'sirini tahlil qilgan. Markaziy Osiyo doirasida raqamli davlat, raqamli tafovut, elektron hukumat masalalariga ko'proq e'tibor qaratilgan. O'zbekiston olimlari xususan S.S.G'ulomov raqamli iqtisodiyot masalalarini yoritarkan, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi aholining barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratgan taqdirdagina ijtimoiy barqarorlik ta'minlanishini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanishi jamiyatda axborotdan foydalanishdagi tafovutni kuchaytirib, ijtimoiy birdamlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, raqamli transformatsiya jarayonida asosan inklyuzivlik tamoyili ustuvor bo'lishi lozim. Raqamli transformatsiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lgan inson kapitali masalasiga Q.H. Abdurahmonov alohida e'tibor qaratadi. Olimning fikricha, zamonaviy jamiyatda shaxsning ijtimoiy faolligi va mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi uning raqamli ko'nikmalari bilan chambarchas bog'liq. Raqamli savodxonlik darajasining oshishi fuqarolarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga imkon yaratib, ijtimoiy integratsiya va birdamlikni kuchaytiradi. O'zbekiston strategiyasi doirasida axborot tizimlari va boshqaruvni raqamlashtirish bo'yicha ishlar olib bormoqda. Bundan ko'rinadiki Yevropa tajribasida – ochiq ma'lumotlar birdamlikni mustahkamlasa, Sharq tajribasida – texnologik intizom va raqamli tartib muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston sharoitida esa asosiy muammo raqamli tafovut darajasining yuqoriligi.

Bugungi kunda esa asosiy ilmiy bo'shliqlar birdamlik va raqamli tafovutning o'zaro ta'sir mexanizimiga oid kompleks ishlab chiqilgan model yo'q. Statistik ma'lumotlarga tayangan holda raqamli transformatsiya – ijtimoiy birdamlikka bog'liqligi yetarlicha o'rganilmagan. Xususan D. Tapscott raqamli transformatsiyaning jamiyatda yangi kommunikatsion madaniyatni shakllantiradi hamda raqamli iqtisodiyot shaffoflikni kuchaytirib, mavjut jamiyatning davlatga bo'lgan ishonchini oshiradi, shu jarayon tufayli birdamlikni mustahkamlaydi. M. Kastels esa tarmoqli jamiyat birdamlikning ko'proq virtual formatga ko'chirishini qayd etib yangi rivojlanayotgan raqamli kommunikatsiya tarmoqlari jamiyatdagi mavjut ijtimoiy munosabatlarning tabiatini tubdan o'zgartirib,

yangi birdamlik formatlarini shakillantiradi. Sharq olimlari, K. Suzuki va Y. Sato texnologik taraqqiyot jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatib uning tengligini kuchaytirishi yoki aksincha jamiyatda raqamli tabaqalanishni keltirib chiqarishi mumkinligini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo mualliflari esa, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va elektron hukumat samaradorligini o'rgangan bo'lib, bunda davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar tizimida raqamli boshqaruvning o'рни masalasini D.S. Tursunov o'z tadqiqotlarida keng yoritadi elektron hukumat tizimlarining joriy etilishi davlat xizmatlarining ochiqqligi va shaffofligini oshiradi. Natijada fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchi mustahkamlanib, bu holat ijtimoiy birdamlikning institutsional asoslarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan olim va mualliflarning fikrini tahlil qilar ekanmiz raqamli transformatsiya jarayonida "raqamli tafovut" nafaqat internetga kirish imkoniyati bilan aniqlanadi, shunigdek quyidagi jihatlari bilan ham kuchayadi.

Raqamli savodxonlik darajasidagi farqlar: Raqamli transformatsiya sharoitida raqamli savodxonlik jamiyat a'zolarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyatini ifodalovchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Biroq jamiyatda raqamli savodxonlik darajasi bir xil emas, turli ijtimoiy-demografik va hududiy omillar ta'sirida sezilarli farqlar vujudga keladi. Ushbu farqlar raqamli tengsizlikni shakllantirib, ijtimoiy birdamlik va ijtimoiy integratsiya jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Avvalo, raqamli savodxonlik darajasidagi farqlar yosh omili bilan bog'liq. Yoshlar raqamli texnologiyalar bilan erta yoshdan tanish bo'lgani sababli axborot qurilmalari va internet xizmatlaridan faol foydalanadi. Keksalar orasida esa raqamli ko'nikmalar nisbatan past bo'lib, bu ularning elektron xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi. Natijada jamiyatning turli yosh guruhlar o'rtasida raqamli tafovut yuzaga keladi.

Ikkinchidan, ta'lim darajasi raqamli savodxonlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Oliy va o'rta maxsus ta'limga ega shaxslar axborotni izlash, tahlil qilish va raqamli platformalarda muloqot qilish borasida yuqori salohiyatga ega bo'ladi. Aksincha, ta'lim darajasi past bo'lgan qatlamlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'proq cheklangan xarakter kasb etadi. Bu holat raqamli imkoniyatlardan teng foydalanmaslikka olib keladi.

Uchinchidan, gender omili ham ayrim jamiyatlarda raqamli savodxonlik darajasidagi farqlarga ta'sir ko'rsatadi. Ayrim hududlarda ayollarning raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ijtimoiy va madaniy omillar sababli cheklangan bo'lishi mumkin. Bu holat ularning raqamli muhitda faolligini pasaytiradi va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi.

Katta va yosh avlod o'rtasidagi texnologik tafovut: Raqamli jamiyat sharoitida avlodlar o'rtasidagi texnologik tafovut ijtimoiy rivojlanishning muhim muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu tafovut axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, raqamli ko'nikmalar darajasi hamda texnologik yangiliklarga moslashuv tezligidagi farqlar bilan izohlanadi. Olimlarning

fikricha, mazkur jarayon nafaqat texnik, balki chuqur ijtimoiy xususiyatga ega. O'zbekistonlik tadqiqotchi B.X. Xolmatov axborot jamiyati masalalarini o'rganar ekan, avlodlararo texnologik tafovutning asosiy sababi sifatida raqamli tajribaning shakllanish davrini ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, yosh avlod raqamli texnologiyalar bilan ijtimoiylashuv jarayonida ulg'aygani bois ularni tez va oson o'zlashtiradi, katta avlod esa texnologik muhitga keyinchalik moslashishga majbur bo'ladi. Bu holat jamiyatda raqamli imkoniyatlardan foydalanish darajasida sezilarli tafovutni yuzaga keltiradi. Axborot madaniyati va media makonini tahlil qilgan Sh.N. Qodirova katta va yosh avlod o'rtasidagi texnologik farqni axborotni qabul qilish va qayta ishlash usullari bilan bog'laydi. Uning fikriga ko'ra, yoshlar raqamli platformalarda faol bo'lsa-da, axborot tanlash va baholash jarayonida yuzaki yondashuvga moyil bo'lishi mumkin. Katta avlod esa axborotga nisbatan ehtiyotkorlik bilan yondashadi, biroq raqamli vositalardan foydalanishdagi cheklanganlik ularning raqamli makondagi faolligini pasaytiradi. Xalqaro miqyosda ushbu masalani o'rgangan olim Jan van Dijk avlodlararo texnologik tafovutni raqamli tengsizlikning ikkinchi darajasi sifatida izohlaydi. Unga ko'ra, texnologiyalarga oddiy kirish imkoniyati mavjud bo'lishi tafovutni bartaraf etmaydi, asosiy muammo ularni samarali va ongli tarzda qo'llay olish qobiliyatidadir. Bu jihat ayniqsa katta avlod vakillari orasida yaqqol namoyon bo'ladi. Katta va yosh avlod o'rtasidagi texnologik tafovut raqamli tajribaning shakllanish davri, axborot madaniyati, texnologiyalardan foydalanish usullari hamda moslashuv tezligi bilan belgilanadi. Olimlarning ilmiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, ushbu tafovutni kamaytirish uchun faqat texnik infratuzilmani rivojlantirish emas, balki avlodlararo raqamli ta'lim va moslashtiruvchi dasturlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shahar va qishloq infratuzilmasidagi nomutanosiblik: hududiy tafovutlar raqamli savodxonlik darajasidagi farqlarning muhim manbalaridan biridir. Shahar hududlarida internet infratuzilmasining rivojlanganligi va raqamli xizmatlarning keng tarqalganligi aholining raqamli ko'nikmalarini rivojlantiradi. Qishloq joylarda esa texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va axborot resurslariga cheklangan kirish imkoniyati raqamli savodxonlikning pastligiga sabab bo'lishi mumkin. Raqamli transformatsiya jamiyatda nafaqat iqtisodiy jarayonlarni, balki ijtimoiy munosabatlarni ham tubdan o'zgartirmoqda.

Shu bilan birga, shahar va qishloq hududlari infratuzilmasidagi nomutanosibliklar raqamli transformatsiya samaralarini teng qabul qilinishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shahar hududlarida rivojlangan transport tarmoqlari va barqaror internet aloqasi mavjud. Bu aholining ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi, davlat va xususiy xizmatlardan foydalanishni osonlashtiradi. Qishloq hududlarda esa transport aloqalari cheklangan, internet sifati past va mobil tarmoqlar qamrovi cheklangan, bu esa raqamli xizmatlarga kirishni qiyinlashtiradi. Xususan A. Prensky nomutanosibliklar jamiyatdagi ijtimoiy tenglik va hamkorlikni susaytiradi. Raqamli transformatsiya jarayonida shahar aholisi tezkor internet va raqamli platformalardan foydalangan holda ijtimoiy integratsiyada faol

bo'ladi. Qishloq hududlarida esa raqamli imkoniyatlarning cheklanganligi fuqarolarning ijtimoiy faolligini pasaytiradi va hududlararo tafovutni kuchaytiradi. Shu bois, raqamli savodxonlik va infratuzilma farqlari ijtimoiy birdamlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tafovutlarni kamaytirish uchun qishloq hududlarda transport, aloqa, ta'lim, sog'liqni saqlash va raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha kompleks siyosat ishlab chiqish zarur.

Iqtisodiy imkoniyatlarning turlicha bo'lishi: ijtimoiy-iqtisodiy holat ham raqamli savodxonlik darajasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Daromad darajasi yuqori bo'lgan aholining zamonaviy qurilmalar va tezkor internetdan foydalanish imkoniyati kengroq bo'lib, bu ularning raqamli ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar orasida esa texnologik imkoniyatlarning cheklanganligi raqamli savodxonlikni oshirishga to'sqinlik qiladi. Raqamli transformatsiya jarayonida jamiyatning barcha qatlamlari raqamli texnologiyalar va xizmatlardan turlicha foydalana oladi. Ushbu farqlar asosan iqtisodiy imkoniyatlarning notengligi bilan bog'liq bo'lib, ular ijtimoiy birdamlikning shakllanishiga sezilarli ta'sir qiladi.

Iqtisodiy imkoniyatlarning taqsimlanishidagi tafovut

Yuqori daromadli qatlamlar zamonaviy qurilmalar, yuqori tezlikdagi internet va raqamli xizmatlardan keng foydalanish imkoniga ega. Natijada ular davlat va xususiy xizmatlarga kirishda, ish va ta'lim imkoniyatlaridan foydalangan holda jamiyatdagi faol ijtimoiy integratsiyada ishtirok etadi. Past daromadli qatlamlar esa texnologiyalarga kirish imkoniyati cheklanganligi sababli raqamli muhitda passiv qoladi. Shu sababli ijtimoiy faollik va birdamlik darajasi turli qatlamlarda farq qiladi. Van Dijk yuqori daromadga ega shaxslar zamonaviy qurilmalar, yuqori tezlikdagi internet va raqamli platformalardan faol foydalana oladi, bu esa ularning ijtimoiy faolligini oshiradi. Kam daromadli qatlamlar esa texnologik cheklovlar sababli raqamli imkoniyatlardan kam foydalanadi va jamiyatdagi integratsiyada passiv qoladi deb takidlaydi

Ish imkoniyatlari va raqamli iqtisodiyot

Raqamli transformatsiya ish bozorini ham tubdan o'zgartiradi. Yuqori iqtisodiy imkoniyatga ega shaxslar raqamli platformalarda ishlash, masofaviy ish va onlayn xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsa, past daromadli qatlamlar texnologik cheklovlar sababli raqamli ish imkoniyatlaridan chetda qoladi. Bu esa jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy tafovutni kuchaytiradi.

Ta'lim va raqamli savodxonlik

Iqtisodiy imkoniyatlarning farqliligi ta'lim infratuzilmasi va raqamli savodxonlik darajasiga ham ta'sir qiladi. Boy hududlarda maktab va oliy ta'lim muassasalari yuqori sifatli ta'lim beradi, shuningdek, talabalar zamonaviy qurilmalar va internetga erkin kirish imkoniga ega. Kam resursli hududlarda esa ta'lim va texnologiyalarga kirish cheklangan bo'lib, bu ijtimoiy birdamlikni susaytiruvchi omil hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiy imkoniyatlarning turlicha bo'lishi raqamli transformatsiya jarayonida ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, Sh.N. Qodirova iqtisodiy imkoniyatlar va raqamli savodxonlik darajasining ijtimoiy birdamlikni shakllantirishdagi muhim omil ekanligini bildiradi. Qishloq va kam resursli hududlarda raqamli xizmatlardan foydalana olmaslik, hududlararo tafovutni kuchaytirad. Ushbu tafovutlarni kamaytirish uchun iqtisodiy imkoniyatlarni tenglashtirish, raqamli infratuzilmani barcha hududlarga joriy etish va raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha kompleks choralar zarur. Shu tarzda jamiyatning barcha qatlamlari raqamli xizmatlardan teng foydalanib, ijtimoiy birdamlik mustahkamlanadi. Iqtisodiy imkoniyatlarning turlicha bo'lishi. Bu tafovutlar asosan ijtimoiy birdamlikni susaytiruvchi omil sifatida ko'riladi. Bugungi jamiyatda esa insonlar

- Axborotni qabul qilish.
- Fikir almashish.
- Ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash.

Ushbu jarayonlarni endi asosan raqamli platformalarda amalga oshiradi. Bu jarayonlar ijtimoiy birdamlikni kuchaytirishi yoki aksincha zaiflashtirishi ham mumkin: Onlayn jamoalar, qo'llab – quvvatlash guruhlari, ochiq muloqot maydonlari shakllanadi. Axborotga tez kirish jamiyatdagi tenglikni kuchaytiradi, onlayn xizmatlar, elektron hukumat aholining ishonchini oshiradi, raqamli savodxonlik birdamlikning barqaror shakllanishiga yordam beradi. Filter pufagi, aks – sado xonasi, polarizatsiya kuchayadi. Raqamli tafovut internetga kirishdagi tengsizlik ijtimoiy tabaqalanishni kuchaytiradi. Noto'g'ri ma'lumotlar oqimi ijtimoiy fikrni bo'lishiga olib keladi, virtual muhitda konfliktlar tez tarqaladi. Natijalar Yevropa va Sharq tadqiqotchilarining yondashuvlari bilan taqqoslanganda, O'zbekiston sharoitida birdamlik masalasiga eng kuchli ta'sir qiluvchi omil – raqamli tafovutning yuqoriligi ekani aniqlanadi S. Selwyn iqtisodiy imkoniyatlarning farqliligi ta'lim va raqamli savodxonlikka bevosita ta'sir qilishini qayd etadi. Yuqori daromadli hududlarda talabalar zamonaviy qurilmalar va internetga erkin kirish imkoniga ega bo'lib, raqamli xizmatlarni faol qo'llaydi. Kam resursli hududlarda esa infratuzilma cheklanganligi raqamli savodxonlikni pasaytiradi, bu esa ijtimoiy birdamlikni susaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi degan fikrni bildiradi. Shuningdek, so'nggi yillarda raqamli xizmatlarning kengayishi birdamlikning kuchayishiga ham xizmat qilmoqda. Bu holat innovatsion siyosat uchun juda ham muhim hisoblanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijasida raqamli transformatsiya jarayonining ijtimoiy birdamlikka ikki tomonlama ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlanib. Raqamli savodxonlikni oshirish, internet infratuzilmasini yaxshilash, axborot xavfsizligini kuchaytirish – jamiyat birdamligini mustahkamlashning asosiy shartlari sifatida belgilanadi. Kelgusidagi raqamli siyosatning ijtimoiy psixologik ta'sir mexanizmlarini chuqur o'rganish tavsiya etiladi. Raqamli transformatsiya jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarini tubdan o'zgartiradi. Shu jarayonda ijtimoiy

birdamlikka ta'sir etuvchi omillar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni kompleks tarzda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hududlararo infratuzilma farqlari, iqtisodiy imkoniyatlarning notengligi, raqamli savodxonlik darajasi va ta'lim tizimidagi tafovutlar jamiyatda ijtimoiy integratsiyaning samarali rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardir. Shahar hududlarida transport, aloqa, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi yuqori darajada rivojlangan bo'lsa, qishloq va kam imkoniyatli hududlarda bu xizmatlar cheklangan. Shu sababli, raqamli texnologiyalar va elektron xizmatlardan foydalanish imkoniyati turlicha bo'lib, jamiyatning ayrim qatlamlari raqamli imkoniyatlardan faol foydalansa, boshqalari undan passiv foydalanadi. Bu esa hududlararo va ijtimoiy tafovutlarni kuchaytiradi, ijtimoiy birdamlikni susaytiradi.

Iqtisodiy imkoniyatlarning notengligi ham raqamli transformatsiya samaralarini teng qabul qilishga to'sqinlik qiladi. Yuqori daromadli qatlamlar masofaviy ish, onlayn xizmatlar va zamonaviy ta'lim imkoniyatlaridan foydalana olsa, kam resursli qatlamlar ushbu imkoniyatlardan foydalana olmaydi. Natijada, ijtimoiy faollik va jamiyatga integratsiya darajasi qatlamlar o'rtasida sezilarli farq qiladi. Shu bilan birga, raqamli savodxonlikning yetishmasligi va texnologiyalarga kirish imkoniyatlarining notekis taqsimlanishi ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli raqamli transformatsiya jarayonida hududlararo va qatlamlararo tafovutlarni kamaytirish, qishloq va kam imkoniyatli hududlarda transport, aloqa va raqamli infratuzilmani rivojlantirish, shuningdek, aholining raqamli savodxonligini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya ijtimoiy birdamlik uchun nafaqat imkoniyat yaratadi, balki mavjud tafovutlar kuchaymasa, jamiyatdagi ijtimoiy tafovutlarni yanada oshirish xavfini ham o'z ichiga oladi. Shu bois, barcha hududlar va qatlamlar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash strategiyasi raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshishi va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov Q.H. Inson kapitali va mehnat bozori. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. - 312 b.
2. G'ulomov S.S. Raqamli iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. - 256 b.
3. Jo'rayev N.M. Axborotlashgan jamiyat va ma'naviy xavfsizlik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018. - 198 b.
4. Kastells M. The rise of the Network Society. Oxford University Press. 2010. – 762 b.
5. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants. – New York: McGraw-Hill, 2018. - 198 b.

6. Qodirova Sh.N. Media makon va axborot madaniyati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – 176 b.
7. Selwyn S. Education and Technology: Key Issues and Debates. London: Bloomsbury, 2016. - 248 b
8. Topscott D. Digital economy McGraw-Hill 2018. – 320 b.
9. Tursunov D.S. Elektron hukumat: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Adolat, 2021. – 228 b.
10. Van Dijk J. The Digital Divide. – Cambridge: Polity Press. 2020. - 356 b.
11. Xolmatov B.X. Axborot jamiyati va ijtimoiy taraqqiyot. – Toshkent: Fan, 2019. – 224 b.